



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XORAZM VILOYAT KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
BUYRUQ**

“01” 06 2023-yil

Nº PL-501

Urganch shahri

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish, xizmat tekshiruvlari o'tkazish to'g'risida"gi 89-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash haqida

ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari foydalanish bo'yicha xalqaro talablar va tavsiyalar" xalqaro standarti talablari va tavsiyalami inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish, xizmat tekshirishlarni o'tkazish va tizimda korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish jarayonlarini tartibga solish va Vazirlikni 2023-yil 26-maydagi 89-sonli buyrug'i bajarilishini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish, xizmat tekshiruvlari o'tkazish to'g'risida"gi 89-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Vazirlikning mazkur buyrug'i bilan:

- ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalari ijro uchun qabul qilinganligi;
- ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari-foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalariiga asosan:
 - korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom **1-ilovaga**;
 - ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomma **2-ilovaga**;
 - xizmat tekshirishlari o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnomma **3-ilovaga**;
 - xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiyot **4-ilovaga**;
 - korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish to‘g‘risidagi tartib **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlanganligi amalda foydalanish uchun qabul qilinsin.

3. Xorazm viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi markaziy apparati, tuzilmadagi boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar mazkur tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

4. Bosh boshqarmaning Komplaens nazorat bosh mutaxassisi (**Z.Xodjayev**) Vazirlikni buyrug‘i asosida tasdiqlangan;

- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha **nizomga**
- ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga
- xizmat tekshirishlari o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnomaga
- xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish yuzasidan **uslubiyotga**
- korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish to‘g‘risidagi **tartibga** bosh boshqarma markaziy apparati, tizimdagi boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan mazkur tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etilishi yuzasidan qat‘iy nazorat o‘rnatsin va har chorak yakuni bilan qilingan ishlarni tashkil etilishi yuzasidan raxbariyatga va vazirlikga axborot kiritsin.

5. Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig‘i v.b.

Sh.Berdiyev